



AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ELEKTRON HUKUMAT TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Davronbek Doniyorov Allamurod o'g'li

talaba

Termiz davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8064330>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-June 2023 yil

Ma'qullandi: 18-June 2023 yil

Nashr qilindi: 21-June 2023 yil

KEY WORDS

Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari, kompyuter,
avtomatlashtirilgan tizimlar,
boshqarish, malumot, tashkilot,
mijoz, malumotlar ombori,
biznes sohasi, bank sohasi,
robototexnika sohasi,
marketing sohasi, ilm-fan
sohasi, tibbiyot sohasi, ishlab
chiqarish sohasi, elektron
hukumat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarining bugungi kunda kundalik hayotimizdagi muhim ahamiyati, jamiyatdagi barcha sohalarida muhim orin egallayotganligi va ularning rivojlanishidagi o'ziga hos hissasi to'g'risida so'z boradi.

Hozirgi davrda Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo'ldi. Bugungi kunda Axborot texnologiyalari nafaqat kundalik hayotimizni balki hukumat tizimini ham osonlashtiryapti desak adashmaymiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020 yil — "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomani nafaqat joriy yilga qo'llanma va yo'llanma sifatida, balki yaqin o'rta muddat uchun O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi dastur, fundamental ahamiyatga ega bo'lgan hujjat sifatida baholash mumkin. Davlatimiz rahbari tomonidan ilm-ma'rifatga alohida urg'u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yilishi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga qaratilgan muhim qadam ifodasidir. Bugungi kunda "elektron hukumat" tushunchasiga turli ta'rif va tavsiflar berilgan. Ba'zi manbalarda, elektron hukumatgadavlat xizmatlarini taqdim etish jarayonini avtomatlashtirish deb qaralsa, boshqalarida elektron hukumat, bu - fuqaro, biznes vakillari, davlatorganlari va tashkilotlarga davlat xizmatlarini taqdim etishdaaxborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, deb ta'rif berilgan.

Umuman olganda, elektron hukumat, bu – raqamli texnologiyalar, Internet va zamonaviy

ommaviy axborot vositalari asosida davlat xizmatlarini taqdim qilish jarayonini, fuqarolarni va boshqaruvni ichki va tashqi o'zaro munosabatlarda o'zgartirishlar vositasida ishtirokini doimiy optimallashtirishdir. Elektron hukumat aholiga, tadbirkorlarga va davlatorganlariga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini taqdim qilishni osonlashtiradi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularning texnologik yangiliklardan xabardorligini oshiradi va davlat boshqaruvidagi ishtirokini osonlashtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha jihatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bir necha turlarga bo'linadi:

Ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari. Ular malum aniq algoritmlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov beruvchi masalalarni yechishga mo'ljallangan. Masalan, har bir tashkilotda o'zining xodimlari haqidagi axborotga ishlov beruvchi.

Boshqarishning axborot texnologiyalari. Ularning maqsadi ish faoliyati qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan insonlarning axborotga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Masalan, boshqarishning axborot tizimlari tashkilotning o'tmishi, hozirgi holati va kelajagi haqidagi axborotni beruvchi.

Tashkilot axborot texnologiyasi. Avtomatlashtirilgan tashkilot zamonaviy axborot texnologiyalari bu - tashkilot ichidagi va tashqi muhit bilan kommunikatsion jarayonlarni kompyuter tarmoqlari va axborotlar bilan ishlovchi boshqa zamonaviy vositalar asosida tashkil etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Buning uchun maxsus dasturiy vositalar ham ishlab chiqilgan. Ulardan biri Microsoft Office dasturlar majmuasidir. Uning tarkibiga matn muharriri, elektron jadval, taqdimot muharriri, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari kiradi. Hozirgi paytdagi kompyuterlar uchun ko'plab dasturiy vositalar mavjudki, ular barcha turdagi axborot texnologiyalarini ta'minlay oladi.

Ma'lumotlar ombori. Har qanday axborot texnologiyasining majburiy elementi ma'lumotlar omboridir (MO). Avtomatlashtirilgan tashkilotda MO firmaning ishlab chiqarish tizimi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Elektron pochta (E-mail) - kompyuterlardan tarmoqda foydalanishga asoslangan bo'lib, hamkorlarga ma'lumotlar jo'natish yoki ulardan ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi. Audiopochta - bu ma'lumotlarni klaviatura yordamida emas, balki tovush orqali uzatuvchi elektron pochta. Axborot texnologiyalari faqat fan va texnika hodisasi bo'lmastan, iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Axborot bilan qamrab olinmagan biror muhim xojlik sohaga (masalan, talim, ishlab chiqarish, transport, kredit-moliya, savdo, qishloq xo'jalik) misol keltirish qiyinmas. Ayni paytda kompyuterlar va aloqa vositalari asosida axborotni to'plash, saqlash va taqdim etishning zamonaviy usullari, yangi axborot texnologiyalari va xizmatlarni sotish (tarqatish) maqsadlarida ishlab chiqarish mustaqil tarmoq sifatida shakllandi va ajralib chiqdi. Shunday qilib, xalq xojligini axborotlashtirish kelgusiga axborot texnologiyasining inqilobiga o'tish demakdir.

Elektron hukumat — Barcha ham „ichki“, ham „tashqi“ aloqalar va jarayonlar majmuasi bo'lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta'minlanib turadigan hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet) orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo'g'inlari tomonidan fuqarolarning barcha

toifalariga elektron vositalar bilan xizmatlar ko'rsatish, o'sha vositalar yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berish. „Elektron hukumat“ tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo'lgan, lekin amaliyotga so'nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSh va Angliya, hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va h.k.) shug'ullandilar. Elektron hukumatning uch asosiy rivojlanishi tizimi ajratiladi:- hukumat- aholi (G2C);- hukumat — biznes (G2B);- hukumat — hukumat (G2 G).O'zbekistonda ham elektron hukumat barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jahon tajribasiga mavjud amaliyotga ko'ra, u ikki o'zaro bog'langan, lekin funksional jihatdan mustaqil qismlardan, Hukumat Intranetidan va tashqi infratuzilmadan tarkib topgan. Hukumat Intraneti axborot tizimining ichki infratuzilmasini qamrab oladi, u davlat tuzilmalari tomonidan davlat korporativ vazifalarini amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlarda foydalaniladi. Tashqi infratuzilma, davlatni fuqarolar (G2C) va tashkilotlar (G2B) bilan o'zaro ishlashini ta'minlaydigan ommaviy axborot infratuzilmasini qamrab oladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra axborot-kommunikatsiya texnologiyalari odamlarga vaqtni tejash va masofani qisqartirish imkonini beradi.Ushbu texnologiyalarning ulkan salohiyatini o'z manfaatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Davlat boshqaruvi, iqtisodiy faoliyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash, atrof-muhit, qishloq xo'jaligi va fan sohasidagi samaradorlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Elektron hukumatni rivojlantirish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ish rejasi belgilandi. Xususan, davlat resurslarini yanada samarali taqsimlash, hukumat va demokratik jarayonlar oshkoraligini ta'minlash, samaradorlikni oshirish va fuqarolar bilan munosabatlarni mustahkamlash uchun fuqarolarning va tadbirkorlarning ehtiyojlarini qondiradigan elektron hukumat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Boshqaruv jarayonlari – tashkilot (tizim) faoliyat yuritishini taminlovchi, ya'ni o'zgaruvchi tashqi tasirlarga moslashtiruvchi jarayonlardir. Xususan, faoliyatni rejalashtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, rivojlantirish, shuningdek bu bilan bog'liq qarorlar qabul qilish va ijrosini nazorat qilish boshqaruv jarayonlaridir.

Operatsion jarayonlar – tashkilotning (tizimning) zimmasi va vakolatidagi asosiy faoliyati, jumladan vazifasi, maxsuloti va xizmati yaratiladigan, shuningdek asosiy daromadi shakllantiriladigan jarayonlardir.

Ko'maklashuvchi-funksional jarayonlar – operatsion va boshqaruv jarayonlari uchun xizmat qiladigan jarayonlar. Jumladan, tashkilotning xodimlar bo'limi, kanselyariya, umumiy bo'lim, xo'jalik ishlari bo'limi, buxgalteriya, yuridik xizmatlar singari bo'limlarining faoliyatidagi vazifalar misol bo'ladi.

Ma'muriy jarayonlar – boshqaruv, operatsion va ko'maklashuvchi-funksional jarayonlar yig'indisi ;

Reinjining (angl. Reengineering) – vazifa, maxsulot va xizmatlar sifati, muddati, tannarxi va servis darajasini qisqa muddat ichida keskin oshirish uchun boshqaruv, operatsion va ko'maklashuvchi jarayonlarini tubdan qayta tashkillashtirish (optimallashtirish) xamda axborot texnologiyalariini joriy etish orqali kardinal ravishda islox qilish tadbiri.

Optimallashtirish – barcha turdagi resurslar sarfini yakuniy natija sifati bilan oqilona

muvozanatlashgan nisbatini topish va unga erishish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kompleksi. Uni amalga oshirish natijasida resurslarni isrofgarchiliksiz, aniq maqsad va vazifalar uchun samarali yo'naltirish, shuningdek sifat ko'rsatgichlarining eng yuqori (ekstrimum) parametrlariga erishish imkoniyati yaratiladi.

Funksiya va xizmatlar – ixtisoslashgan davlat va xo'jalik boshqaruv organlari va ularning tuzilmaviy bo'limlari tomonidan, iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan vazifalar. Vazifalar - jarayon, loyixa va funksional faollik shaklid bo'lishi mumkin.

BPMN (BusinessProcessModelandNotation) – faoliyat jarayonlarini diagramma shaklida modellashtirish va tavsiflash uslubi bo'lib u mazkur formatda qo'llaniladigan shartli belgilar tizimidan iborat.

Kontaktsiz muloqot – davlat va xo'jalik boshqaruv organlari funksional vazifalarini bajarish, maxsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarining yakuniy maxsulini iste'molchining interaktiv murojaati asosida, inson omili ishtirokisiz, ya'ni ixtisoslashgan tizimlar, mexanizmlar va vositalar orqali yetkazib berishini nazarda tutuvchi, o'zaro interaktiv munosabat shaklidir.

Rudiment protseduralar – boshqaruv tizimi va usullarining rivojlanishi, takomillashuvi natijasida o'zining asl mohiyatini yo'qotgan, ammo tartibotlarda o'rnashib qolgan funksional protseduralar. Bu protseduralar amalga oshiriladigan funksiya yoki ko'rsatiladigan xizmat sifatiga qimmat qo'shmaydi, balki o'zini oqlamaydigan qo'shimcha, ortiqcha resurs sarflanishiga, maxsulot/xizmatlar tan narxi va qiymatini oshirib yuboruvchi omil sifatida faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tarkibiy tuzilma yoki amaliyot hisoblanadi. Umumiy qoidalar. Ma'muriy jarayonlar reinjiningi unga turdosh usullaridan farqli ravishda, qisqa muddatda eskirgan, o'zini oqlamagan samarasiz usullar va vositalardan, rudiment jarayonlardan butunlay voz kechish xamda jarayonlarga zamonaviy AKTni joriy etish orqali mamuriy jarayonlarni tubdan isloh qilishni nazarda tutadi. Bunda ma'muriy jarayonlarni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruv organlari manfaatlari emas, balki, faqat va faqat istemolchi fuqarolar manfaatlari, ularning ehtiyojlari, talabi va shart-sharoitlari birlamchi hisoblanadi. Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarning mutassadi rahbarlari, mas'ul xodimlari va xizmatchilari tomonidan reinjining tadbirlarini paysalga solishga bo'lgan harakat va intilishlari, davlat xizmatlarini modernizatsiyalashga yo'naltirilgan islohotlarga jiddiy to'siqlar yaratishi mumkin.

Reinjiningni quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Siyosiy qaror va hohish-irodaning mavjudligi;
2. Samaradorlik – asosiy omil sifatida;
3. Iste'molchi uchun qulayliklar yaratish;
4. Jarayonlarning funksiyalarga nisbatan afzallikka ega bo'lishi;
5. Vakolatlarni quyi bo'limlarga va mutaxassislarga topshirish;
6. Innovatsion yondashuv;
7. Muammoli masalalarni aniqlashda ichki va tashqi muhitni uzviy o'rganish.

Ushbu tamoyillarga va reinjining tadbirining asosiy omillariga ko'ra, ma'muriy jarayonlar reinjiningini amalga oshirishda yuqori lavozimdagi rahbarlarning siyosiy qaror va hohish-irodalari birlamchi omil hisoblanadi va reinjining tadbirlarini "yuqoridan pastga" qarab amalga oshirish uchun asosiy turtki vositasini o'taydi.

Ma'muriy jarayonlar reinjiningi natijasida ham davlat organlari, ham iste'molchilar (aholi,

tadbirkorlik sub'yektlari) manfaatdor bo'lishini ta'minlash joiz. Bunda barcha ortiqcha, takroriy va salbiy byurokratik to'siqlar bartaraf etilib, faqatgina "zaruriy byurokratiya"ga yo'l qo'yiladi. YA'ni, aholi va tadbirkorlar uchun ma'muriy yukning minimal zaruriy ko'rinishlarigagina yo'l qo'yiladi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda "proaktiv" xizmatlar konsepsiyasi ilgari surilmoqda, ushbu konsepsiyaga muvofiq, ayrim davlat xizmatlari uchun hattoki iste'molchilarning murojaatlari ham talab qilinmaydi. Masalan, farzand tug'ilishi bilan mahalliy hokimiyatlar tomonidan bolalar bog'chasi va umumta'lim maktabiga ro'yxatga olish xizmati "proaktiv" xizmatlar ro'yxatiga kiradi.

Aksariyat hollarda davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida har bir tarkibiy funksional bo'linma tomonidan faqatgina mazkur bo'linmaning funksiyalari doirasida e'tibor qaratilib, yakuniy natija rahbariyatdan tashqari hech kimni qiziqtirmaydi. Ya'ni, har bir funksional bo'lim qo'yilgan masalaning yoki jarayonning faqatgina bir qismi bilan shug'ullanishi hamda boshqa bo'limlar faoliyatidan doimiy ravishda xabardor bo'lmasligi va umumiy muvofiqlashtirishning sustligi natijasida jarayonlarda nuqsonlar vujudga kelishi kuzatiladi. Ma'muriy jarayonlar reinjiningi jarayonlarni yaxlit holatda nazorat qilish mexanizmlarini joriy qilishni nazarda tutadi va yakuniy natijaga barcha tarkibiy bo'linmalar tomonidan qiziqish bo'lishini ta'minlashga undaydi. Ayrim turdagi qarorlarni qabul qilish vakolatlarini quyi tashkilotlarga tushirish va Markaziy apparatga xos bo'lmagan funktsiya va vazifalarni quyi tashkilotlarga berish orqali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Reinjining tadbirlarini o'tkazishda yangi g'oyalar uchun cheklovlar o'rnatilishi mumkin emas, har qanday yangi g'oyalar davlat xizmatini kelajakdagi yangi modeli uchun muhimdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ayni paytda ishlayotgan samarasiz tizimlarda emas, balki ma'muriy jarayonlari reinjiningi natijasida yaratilgan yangi tizimlarda qo'llanilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka olib keladi. Ya'ni, boshqa so'z bilan aytganda samarasiz tizimlarni avtomatlashtirish qisqa muddatda ma'lum vazifalarni soddalashtirsada, iste'molchilar uchun yetarli darajada qulayliklar yaratmaydi, balki eski tizimning barcha nuqsonlarini yanada ko'proq namoyish qiladi. Shuning uchun ham AKT vositalarini reinjining tadbirlari asosida yaratilgan yangi tizimlarda tadbiriq etish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, bugungi kunda ayrim turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatishda ikki va undan ortiq ma'muriy organlar ishtirok etadi. Shu sababli, ma'lum bir xizmatga aloqador bo'lgan va ushbu xizmatni ko'rsatishda ishtirok etayotgan mazkur ma'muriy organlarda ham har bir ma'muriy jarayonlarni o'rganish talab etiladi.

O'zbekiston elektron hukumat rivojlanishi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida 18 pog'onaga ko'tarilib, dunyoda 69-o'ringa chiqdi. BMTning elektron hukumatlar rivojlanish indeksi reytingi 193 davlat orasida o'tkazildi. Ma'lumot uchun 2020-yilgi hisobotda O'zbekiston 87-o'rinni egallagan edi. Mazkur tadqiqot BMTning Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksi bo'yicha mamlakatlarning yigirma yillik bo'ylama tadqiqotlari reytingiga asoslanadi. Sharhning ushbu nashri global va mintaqaviy kontekstdagi ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga olgan.

XULOSA.

Ilmsiz, ma'rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkul. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilik" asarida "Bilimsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni och kishi nima qilsin?!", deb ilm-ma'rifatning o'rni naqadar dolzarb va muhimligini ko'rsatib o'tgan. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, fuqarolar bilan munosabatlarni

mustahkamlash siyosatni shakllantirish jarayonining muhim qismidir va AKT yaxshi boshqaruvning muhim vositalaridan biri va hukumatni yanada qulayroq qilish (printsipial deklaratsiyasi) sifatida ishlatilishi kerak. Elektron biznes sohasida hukumat siyosati xususiy investitsiyalarning o'sishi, yangi ilovalar yaratish, tarkibiy qismlarni ishlab chiqish, AKT sohasidagi kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek elektron biznesda ishtirok etishga ko'maklashadigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Jamiyat hayotini yanada yaxshilash uchun davlat organlari, yuqori lavozim egalarining haftalik yoki oylik amalga oshirilgan ishlarini yuzasidan ularga fuqarolar tomonidan baho berilishi kerak. Buning uchun alohida sayt yaratilib yoki telegram kana orqali fuqarolar o'zlari yashab turgan joydagi davlat organlarining va mansabdor shaxslarning faoliyatini baholashsa, eng yaxshi reytingdagi davlat organlari va mansabdor shaxslar rag'batlantirilsa, jamiyat kundan kunga yaxshilanadi. Mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish uchun Axborot texnologiyalarini jamiyatning barcha sohalariga qo'llashni yanada rivojlantirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. БДулматова, Д.Буранова. "Автоматлаштирилган офис технологиялари"
2. БДулматова, Д.Буранова. "Таълим жараёнида электрон таълим ва ананавий таълимнинг интеграцияси". НамДУ илмий ахборотномаси. 2020 йил 2-сон. 366-373 бет.
3. Н.Каримов, Б.АДулматова, Д.Буранова. "Ақлли кишлоқ хужалигини юритишда рақамли технологияларнинг жорий этиш масалалари". «The XXI Century Skills for Professional Activity» International Scientific-Practical Conference. TASHKENT, UZBEKISTAN 2021, MARCH 15.
4. БДулматова, З.Запаров, Д.Буранова, "Способы защиты от интернет-мошенничеств". Научно-методический журнал "Academy". Россия. 2019 декабрь.
5. БДулматова, Д.Буранова, "Требования к созданию электронных образовательных ресурсов и технологии их использования". Научно-методический журнал "Academy". Россия. 2019 июль.
6. Н.Каримов, Б.АДулматова, Д.Буранова. "Кишлоқ хужалигида рақамли технологияларнинг жорий этиш масалалари".
7. В. А. Qulmatova, D. A. Buranova. "Problems of mathematical modeling in the cultivation of agricultural products".